

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 9

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

TASAVVUF TA'LIMOTIDA DARVESHLIK AN'ANASI

Raximova Yulduz Dilmurod qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, tayanch doktorant.

e-mail: yaximova711@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0007-6944-7061>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada tasavvuf tarixida shakllangan darveshlar toifasi va ularga xos xususiyatlar tahlil qilinadi. Darveshlar xalq orasidan yetishib chiqqan toifa bo'lib, ularning asosiy vazifasi jamiyat vakillarini tariqat odoblari bilan tanishtirish, ularni to'g'ri yo'lga boshlash, Alloh rizoligi uchun mehnat qilish va hayot kechirishga da'vat etishdan iborat bo'lgan. Darveshlar jamiyatda kamtarlik, tavozelik, muloyimlik, xushfe'llik va xokisorlik kabi fazilatlarining targ'ibotchilari hisoblangan. Maqolada, asosan, naqshbandiylik tariqatiga mansub darveshlarning tabiati, fe'l-atvori va axloqiy fazilatlarini xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: darvesh, "Futuvvatnomayi sultoni", hirqa, kuloh, "Mahbub ul-qulub", tavba, rizo, taslimiyat.

ТРАДИЦИЯ ДЕРВИШЕСТВА В СУФИЙСКОМ УЧЕНИИ

Рахимова Юлдуз Дилмурод кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков, базовый докторант.

Аннотация.

В статье рассматривается категория дервишей, сформировавшаяся в истории суфизма, а также характерные для них особенности. Дервиши являлись представителями народа, основной задачей которых было ознакомление членов общества с нормами и правилами поведения в тарикате, наставление их на истинный путь, а также призыв к труду и образу жизни ради довольства Аллаха. В обществе дервиши считались носителями и проповедниками таких нравственных качеств, как скромность, смирение, мягкость, доброжелательность и непритязательность. Особое внимание в статье уделяется характеру, поведению и нравственным качествам дервишей, принадлежавших к тарикату Накшбандия.

Ключевые слова: дервиш, «Футувватномаи султоний», хирка, кулох, «Махбуб ул-кулуб», покаяние, довольство, покорность.

THE TRADITION OF DERVISHISM IN SUFI TEACHINGS

Raximova Yulduz Dilmurod qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages, PhD Student.

Abstract.

This article examines the category of dervishes that emerged in the history of Sufism and their distinctive characteristics. Dervishes originated among ordinary people, and their primary role was to introduce members of society to the principles and etiquette of the tariqa, guide them toward the right path, and encourage them to work and live for the sake of Allah's pleasure. In society, dervishes were regarded as advocates of such moral virtues as modesty, humility, gentleness, kindness, and self-effacement. The article focuses primarily on the character, behavior, and moral qualities of dervishes associated with the Naqshbandi tariqa.

Keywords: dervish, *Futuvvatnomayi Sultoni*, *khirqa*, *kulah*, *Mahbub ul-Qulub*, repentance, contentment, submission.

Kirish. Tasavvufiy adabiyotlarda darvesh istilohi faqir, so'fiy, orif, oqil, gado kabi so'zlar bilan bir qatorda qo'llanilib keladi. Forsiy kalima hisoblanadigan darvesh so'zining lug'aviy ma'nosi gado, kambag'al ma'nolarini anglatadi. Kamtarlik, kamsuqumlik, xokisorlik, faqirlik darveshning asosiy belgilaridan biri bo'lgan. Ammo jamiyatda uchraydigan tilanchi bilan so'fiy-darveshni adashtirib yubormaslik zarur. Tilanchi kun kechirish, qornini to'yg'izish maqsadida odamlardan tama qilsa, darvesh o'zligidan kechgan holda Alloh rizoligi uchun odamlarga yaxshilik qiladi. Dunyo noz-ne'matlaridan yuz o'g'irgan, bir burda non yoki bir qultum suvga bardoshi yetadigan darveshlar Allohning ma'rifatini tilab yurgan kishilar deb hisoblangan. Darveshlar zohiran aftodahol, ko'rimsiz, yupun, yamoqli kiyim kiyisalar-da, botinan ma'rifatli, aql-u zakovatli, serfahm, idrokli, saxiy, mard kishilar bo'lishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Mashhur tasavvuf olimi Husayn Voiz Koshifiy "Futuvvatnomayi sultoni" asarida darvesh toifasini "faqr" deb tilga oladi. To'rtinchi faslda maxsus darveshlar va uning odo qoidalari xususida so'z yuritadi. Ushbu bo'limda faqrlarga shunday ta'rif beradi: "Faqr valilik konidan topilgan javhar va hidoyat osmonida chaqnagan axtar (yulduz)dir" [1; 187-b.]. Olim fikricha, faqrning uchta alomati bo'ladi. Birinchisi, mehrda quyosh kabi bo'lish, chunki quyosh hech kimdan nurini qizg'onmaydi. Ikkinchisi, yer kabi tavozeli bo'lish, negaki yerga qadam qo'yg'an odam o'z maqomidan siljimaydi.

Uchinchisi esa bulut kabi serbaraka, saxovatli bo'lish, ya'ni bulutdan rahmat yomg'iri yog'adi va joy ajratmaydi. Olim har kim ham faqr bo'lolmasligini ta'kidlaydi. Kimda-kim tavba qilmas ekan, unga faqrlik eshigi ochilmaydi. Mutasavvuf shayx darvesh so'zining ham ma'nolarini ta'riflab beradi:

D — dard bilan yonish dalili; R — riyodan saqlanish timsoli; V — vido', ya'ni Tangri taolodan o'zga narsalar bilan vidolashish; I — ishq yo'lida yakdil va sobit-u sodiq bo'lish; Sh — shukr etmoq va shikoyat qilmaslik.

Muhokama

She'riyat mulkining sultoni, naqshbandiylik tariqatining ko'zga ko'ringan vakili Hazrat Mir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining birinchi qismi qirqinchi faslida alohida darveshlar tavsifi uchun bob ajratadi. Navoiy darveshlarni shunday ta'riflaydi: darveshning fikr-u xayoli Allohning rizoligi bilan band, qalbida ming dard bo'lsa ham, sirti muloyim va rohatbaxshdir. Ichi va tashida manmanlik va xudbinlikdan asar ham qolmagan.

Navoiy darveshning yirtiq to'nini ganj (xazina) berkitilgan vayrona joyga qiyoslaydi. Bu esa Faridun podshohning xazinalari vayronada yashirin qo'yilganligi bilan baholanadi. Navoiy darveshlarni ma'no ahlidan deb ta'riflaydi. Darveshlar Alloh taolodan nima kelsa, rozi bo'ladilar, qadarga shikoyat etmaydilar. Dunyo kishilarining malomat va ta'na-dashnomlariga chidaydilar. Shuning uchun ham darveshning maqomi rizo va taslimiyatda, qalbi orom oladigan makon esa fano dashti ekanligi izohlanadi.

Xoja Bahouddin Naqshband darveshlikka shunday ta'rif beradilar: "Zohir — rangsiz, botin — jangsiz bo'lishdir". Yana bir o'rinda darveshlikni zabunlik deya izohlaydilar. Bahouddin Naqshband fikricha, darveshlar sabr va chidamda nog'ora kabi bo'limg'i kerak. Negaki, nog'ora qancha zarba olsa ham, o'z ovozi xilof tovush chiqarmaydi. Shuningdek, darveshlarni har bir ishni o'z vaqtida bajarishga da'vat qiladilar.

Nazm:

"Imro'z bi ba didan botin jamoli do'st.

Ey, bin, bexabar, havola ba fardo chi mekutiy".

Mazmuni: Botin ko'zi bilan bugun do'st jamolini ko'r, bu ishni ertaga qo'yib nima qilasan [2; 68-b.].

Tasavvuf tarixida darveshlar ko'ngli pok, qalbi g'arazli illatlardan xoli, ham ruhi, ham vujudi noqislik va kamchiliklardan bartaraf bo'lgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Manoiqlardan ma'lum bo'lishicha, Bahouddin Naqshbandga shunday savol bilan murojaat qilishgan: "Darveshlar tiriklik dunyosi lazzatidan kechganlardan. Ular yana nega «Ey Tangri, meni kechirgil» duosini o'qiydilar?" Shunda Xoja Bahouddin Naqshband ular o'zlarining vujudlarini poklash bilan birgalikda boshqalarning ham vujudlarini poklash g'amidadir, deya javob beradilar. Demakki, darveshlar nafaqat o'zining ichki va tashqi dunyosining go'zal bo'lishi, balki jamiyatdagi kishilarning ham to'g'ri yo'lda yurishi, gunohlardan saqlanishiga yordam beradigan kishilar sifatida namoyon bo'ladi.

Darveshlarga oid bo'lgan detallardan yana biri bu po'stin (hirqa)dir. "Futuvvatnomayi sultoni" asarida ushbu hirqa so'zi aslida "haraq" so'zidan kelib chiqqanligi aytib o'tiladi. "Haraq" arabiy kalima bo'lib, parchalash degan ma'noni anglatadi. Tasavvuf tarixidan xabar beruvchi manbalarga ko'ra, hirqa kiyish an'anasi Ibrohim alayhissalomga borib taqaladi. Usmon Turarning "Tasavvuf tarixi" kitobida Ibrohim alayhissalomni gulxanga tashlaganlarida Jabroil alayhissalom jannatdan ipak ko'ylak olib kelib, unga kiydirgan va hazrat Ibrohim uning barakoti tufayli olovdan qutulib qolgan. Ushbu ko'ylakni saqlab qo'yib, hazrati Ismoilni qurbon qilmoqchi bo'lganida kiydirgan. Bu ko'ylak hazrati Ismoilidan hazrati Is'hoqqa, undan Ya'qubga, undan Yusuf alayhissalomgacha yetib kelgan va uning quduqdan qutulishiga, hazrati Ya'qubning ko'zlari ochilishiga vosita bo'lgan [3; 100-b.]. Darveshning egnidagi bu po'stin ko'rimsiz, eski, yamoqdan qilinganligi uning dunyo matohlariga qiziqmasligini, nafsini jilovlay olganligini anglatadi. Ba'zi manbalarda po'stin ilohiy ahamiyat kasb etib, u o'tda yonmas va suvda cho'kmas vosita sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Bahouddin Naqshband hayotlari haqidagi manoiqlarda shunday naql uchraydi: Bahouddin Naqshband Buxorodan Nasa'fga Sayyid Amir Kulolning yonlariga boradilar. Piri komil Bahouddin Naqshbandga xumdonga o't yoqishni buyuradi. Havo issiqdigi tufayli Bahouddin egnilaridagi eski po'stinni yechib, olovga tashlaydi. Shunda Amir Sayyid Kulol olovga kirib, po'stinni olib chiqishni uch marotaba buyuradilar. Bahouddin Naqshband esa bu oddiy po'stin ekanligini, allaqachon yonib kul bo'lganini aytib, uzr izhor qiladi. Shunda Amir: "Ey farzand Bahouddin, Hazrati Haq subhonahu taoloning shavqida yongan darveshlarning ustida yillab turgan narsani bu dunyo olovi qanday kuydira olsun!" deya javob beradi. Hazrat Bahouddin "Bismillahir rohmahir rohiym" deya olovga kirs, po'stinga shikast yetmabdi. Shundan so'ng Amir Kulol shunday deb buyuradi: "Ey farzand, darveshlar ustida bo'lgan narsani dunyo olovi kuydirolmagay. Sen sa'y-u harakat qilib, darveshlar dilidan joy olsang, do'zax olovi seni kuydirmaydi". Demak, darveshlar po'stini ramziy ma'noda darveshni har qanday ofat-balodan saqlab qoluvchi vosita ekanligi anglashiladi.

Darveshlarning faqat bitta kiyimda yurishi haqida Farididdin Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarida shunday rivoyat uchraydi: bir darveshdan nega faqat bitta kiyim kiyib yurishi haqida so'rashganda, u shunday javob beradi: "Oldinlari har xil to'n va liboslar kiyar edim. Bir kuni tushimda jannatda bir necha darveshlar jannat ne'matlaridan tanovul qilayotganlarini ko'rdim. Men ham ular bilan yeyishni xohlaganimda, ular meni haydab yuborishdi. Buning sababini so'raganimda, mening ikkita ko'ylak kiyishimni aytdilar. Ikkita ko'ylak kiygan odamning jannatda nasibasi yo'qligini aytdilar. Shundan so'ng hech qachon ikkita ko'ylak kiyimaslikka qaror qildim", — deb javob beradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, darveshlar toifasi shu darajada faqir, xokisor va kamtarlikni shior qilishi, dunyo mol-davlatiga aldanib qolmasligi kerak.

Natijalar

Darveshlarga oid navbatdagi muhim predmetlardan biri **kuloh** hisoblanadi. Kuloh bosh kiyim sifatida qo'llanilib, odatda kigiz yoki qo'y terisidan tayyorlangan. Husayn Voiz Koshifiy ushbu bosh kiyimni **mavlaviy kulohi** deb ataydi hamda uning Jaloliddin Mavlaviy Rumi an'analaridan meros bo'lib qolganligini ta'kidlaydi. Tasavvufiy muhitda kuloh oddiy bosh kiyim vazifasini bajarish bilan cheklanmay, darveshning muayyan tariqatga mansubligi, uning ma'naviy

maqomi va hayot tarzini ifodalovchi ramziy vosita sifatida ham ahamiyat kasb etgan. Bunday kulohlarning aksari qo'y terisidan tikilgani ularning sodda, tabiiy va ortiqcha hashamdan xoli ekanligini ko'rsatadi.

"Futuvvatnomayi sultoni" asarida so'fiy va darveshlar turmush tarziga taalluqli bo'lgan **joynamoz, rido, kashf, suhbat kamari, xizmat kamari, takya po'stagi** kabi buyumlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar keltiriladi. Mazkur predmetlarning har biri darveshlik madaniyatida nafaqat amaliy, balki ma'naviy-ramziy mazmunga ham ega bo'lgan. Jumladan, joynamoz darveshning ibodatga bog'liqligini, rido esa uning soddalik va kamtarlikka asoslangan tashqi qiyofasini ifodalagan.

Asarda darveshlar beliga bog'laydigan kiyim qismi **izor** deb ataladi. **Rido** esa to'nning ustidan yelkaga tashlanadigan bir qavatli, astarsiz va yengil kiyim sifatida tavsiflanadi. Uning sodda tuzilishi darveshlarning dabdaba va ortiqcha bezaklardan yiroq hayot tarziga mos kelgan. Husayn Voiz Koshifiy kamarlarning ikki turini — **suhbat kamari** va **xizmat kamari** alohida qayd etadi. Suhbat kamarini har qanday kishi emas, balki suhbat odobi va haqini ado eta oladigan, ma'naviy jihatdan muayyan tayyorgarlikka ega bo'lgan shaxslar bog'lashi mumkinligi ta'kidlanadi. Bu esa darveshlik muhitida tashqi atributlar insonning ichki ma'naviy holati va axloqiy mas'uliyati bilan chambarchas bog'langanligini ko'rsatadi. Shuningdek, darveshlar foydalanadigan buyumlarning aksariyati oddiy va kamtarona materiallardan tayyorlangani ham e'tiborga molik. Bu jihat ularning dunyoviy hasham, boylik va ortiqcha ehtiyojlardan voz kechishga asoslangan hayotiy qarashlarini aks ettiradi. Demak, kuloh, rido, izor, kamar va boshqa buyumlar darveshlarning tashqi ko'rinishini shakllantirish bilan birga, tasavvufiy axloqning muayyan belgilarini ham ifodalagan.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, darveshlar xalq orasida to'g'rilik, adolat, kamtarlik, sabr-qanoat va xokisorlik fazilatlarini hayotiy mezon sifatida qabul qilgan ijtimoiy-ma'naviy toifa sifatida namoyon bo'ladi. Ularning hayot tarzi dunyoviy manfaatlarni birinchi o'ringa qo'yishdan ko'ra, insoniylik, saxovat, ruhiy poklanish va ezgulikka intilish tamoyillariga asoslangan. Darveshlar Alloh rizoligi yo'lida insonlarga beminnat yordam ko'rsatish, ehtiyojmandlarning og'irini yengillatish, ularning dardiga sherik bo'lish va jamiyatda mehr-oqibat muhitini mustahkamlashga intilganlar. Shu ma'noda darveshlik faqatgina dunyo molidan voz kechish yoki tarkidunyochilikni anglatmay, balki insonning o'z nafi ustidan hukmronlik qilishi, axloqiy kamolot sari intilishi va jamiyat oldidagi ma'naviy mas'uliyatini his etishi bilan ham bog'liqdir. Darveshlarning kuloh, rido, izor, suhbat va xizmat kamari kabi tashqi atributlari ham ularning ma'naviy dunyoqarashini ifodalovchi ramziy belgilar sifatida xizmat qilgan. Ushbu buyumlarning soddaligi, kamtarona shakli va ularga yuklangan ma'naviy mazmun darveshlik falsafasining tashqi ko'rinish bilan ichki ruhiy poklik o'rtasidagi uzviy aloqaga asoslanganligini ko'rsatadi. Shu bois darveshlikni faqat diniy-tasavvufiy hodisa sifatida emas, balki xalqning axloqiy qarashlari, ma'naviy qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog'langan madaniy hodisa sifatida ham baholash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. *Komil inson haqida to'rt risola* / fors-tojik tilidan N. Komilov tarjimasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997. – 187 b. ([Китобхон](#))
URL: <https://kitobxon.com/uz/kitob/komil-inson-haqida-tort-risola>
2. Salohiddin ibn Muborak Buxoriy. *Anis ut-tolibin va uddat us-solikin*. – Buxoro: Buxoro viloyat bosmaxonasi, 2020. – 68 b.
URL: <https://naqshbandnur.uz/manaviyat-tafakkur-xazinas/>
3. Farididdin Attor. *Tazkirat ul-avliyo*. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 464 b. – ISBN 978-9943-03-465-5. ([DiLib](#))
URL: <https://dilib.tsuos.uz/resources/01KD4ZV56QA9VVAH02C73QPQ89>
4. Turar U. *Tasavvuf tarixi* / turk tilidan Nodirxon Hasan tarjimasi. – Toshkent: Istiqlol, 1999. – 180 b. ([Библиотека](#))
URL: <https://library.dtpi.uz/ru/adabiyotlar/boshqa-adabiyotlar/tasavvuf-tarixi>